



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 23-noyabr

669-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hududlarda jamoat transporti infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 14-noyabrdagi 757-son qarori ijrosi haqida”gi 558-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hududlarda jamoat transporti infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 14-noyabrdagi 757-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi 558-6-0-Q/24-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalarini hamda ichki xo‘jalik yo‘llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 14-noyabrdagi 757-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 558-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qarori bilan mavjud avtobekatlarni xatlovdan o‘tkazib, ular joylashgan yer uchastkalarining huquqiy maqomini aniqlashtirish, shuningdek, avtobekatlarda tadbirkorlik obyektlarini joylashtirishga ruxsat berishning shaffof elektron mexanizmlarini yaratish va ulardan foydalanishning aniq talablarini belgilash nazarda tutilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

belgilab qo‘yilishicha:

a) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari bo‘yida avtobus bekatlari Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining hududiy tashkilotlari tomonidan tashkil etilishi;

b) shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko‘chalaridagi avtobus bekatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tomonidan tashkil etilishi;

v) avtobus bekatlari loyihasi yo‘lovchilar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va belgilangan meyorlarga muvofiq namunaviy loyiha (yengil konstruksiya) asosida qurilishi;

g) avtobus bekatlarida faqatgina reklama vositasi, bankomatlar, mahsulotlarni va elektron chiptalarni xarid qilishga mo‘ljallangan o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish (vending, infokioska) avtomatlari, aholining internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishi uchun “Wi-Fi” aloqa tizimini joylashtirishga ruxsat etilishi;

Bunda elektron chiptalarni xarid qilishga mo'ljallangan o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish avtomatlarini (infokioska) joylashtirishda ijara to'lovlari olinmasligi, elektr quvvatini hisoblash qurilmalarini o'rnatmasdan oylik to'lov normasi belgilanishi;

d) yangi va rekonstruksiya qilinadigan bekatlar joylashtiriladigan yer maydonlarida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini joylashtirish taqiqlanishi;

ye) shahar markazlarida joylashgan avtobus bekatlarida ma'lumotlarni onlayn aks ettiruvchi elektron tablolar qo'yilishi;

j) o'rindiq va chiqindi tashlash qutilari majburiy tartibda o'rnatilishi;

quyidagilar:

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi faoliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan avtobus bekatlarini qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko'chalarida mahalliy budjet mablag'lari hisobidan avtobus bekatlarini qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko'chalari hamda ichki xo'jalik yo'llaridagi avtobus bekatlari uchun yer uchastkalari elektron onlayn-auksion savdolari orqali tadbirkorlik subyektlariga uzoq muddatga ijara huquqi asosida foydalanishga Vazirlar Mahkamasining "Ko'chma savdo faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini yanada keng joriy etish hamda savdo avtomati orqali chakana savdo faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 3-avgustdagi 485-son qarori asosida berilishi, bunda:

a) ijara shartnomasi elektron onlayn-auksion g'olibi va tuman (shahar) hokimligi o'rtasida tuzilishi;

b) talabgorlarga 120 oygacha ijaraga berilgan yer uchastkasi xususiylashtirilmasligi;

v) avtobus bekati uchun yer uchastkasini uzoq muddatga ijaraga berish manzilli ro'yxati tuman (shahar) hokimliklari tomonidan Transport vazirligining hududiy bo'linmalari va Avtomobil yo'llari qo'mitasi bilan birgalikda avtobus bekatlarini xatlovdan o'tkazgan holda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda viloyatlar hokimliklariga tasdiqlash uchun kiritilishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari:

avtobus bekatlarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun kiritilgan dasturlar doirasida ajratiladigan mablag'lar xarajatlar smetalarida aks ettirilishini ta'minlashi;

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi, Ichki ishlar vazirligi va Transport vazirligining hududiy bo'linmalari bilan birgalikda savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari mavjud bo'lgan faoliyat ko'rsatayotgan avtobus bekatlarida ushbu qarorning 2-bandida belgilangan minimal talablarni inobatga olgan holda, jamoat transportlari, yo'lovchilar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay va xavfsiz shart-sharoit yaratish choralari ko'rishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Transport vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi bilan birgalikda uch oy muddatda hududlarda joylashgan avtobus bekatlarining elektron ID-reyestrini yuritish hamda obyektlar joylashgan geografik lokatsiyani (Geocode) ID-kodga bog'lash ishlarini tashkil etishi;

Vazirlar Mahkamasining "Avtomobil transporti sohasida davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini takomillashtirish va moliyaviy sog'lomlashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 9-avgustdagi 494-son qaroriga 3-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilganligi;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi ikki oy muddatda mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasining "Ko'chma savdo faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini yanada keng joriy etish hamda savdo avtomati orqali chakana savdo faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 3-avgustdagi 485-son qaroriga tegishli

o'zgartirishlar kiritish bo'yicha Hukumat qarori loyahasini belgilangan tartibda kiritishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman yo'llardan foydalanish Adavlat muassasasi (D.Sayfiddinov), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (F.Mirzahmedov), tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Xudoyberdiyev):

avtobus bekatlari uchun yer uchastkasini uzoq muddatga ijaraga berish manzilli ro'yxatini Transport vazirligining hududiy bo'linmalari va Avtomobil yo'llari qo'mitasi bilan birgalikda avtobus bekatlarini xatlovdan o'tkazgan holda, viloyat hokimligiga tasdiqlash uchun kiritin.

4. Davlat kadastrlar palatasi tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ikki oy muddatda tuman hududida joylashgan avtobus bekatlarining elektron ID-reyestrini yuritsin hamda obektlar joylashgan geografik lokatsiyani (Geocode) ID-kodga bog'lash ishlarini tashkil etsin;

avtobus bekatlarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun kiritilgan dasturlar doirasida ajratiladigan mablag'lar xarajatlar smetalarida aks ettirilishini ta'minlasin;

5. Tuman yo'llardan foydalanish Adavlat muassasasi (D.Sayfiddinov), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (F.Mirzahmedov), tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Xudoyberdiyev) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obektlari mavjud bo'lgan faoliyat ko'rsatayotgan avtobus bekatlarida ushbu qarorning 2-bandida belgilangan minimal talablarni inobatga olgan holda, jamoat transportlari, yo'lovchilar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay va xavfsiz shart-sharoit yaratish choralarini ko'rsin.

6. Tuman yo'llardan foydalanish davlat muassasasi (D.Sayfiddinov), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (F.Mirzahmedov), tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Xudoyberdiyev) manfaatdor tashkilot va idoralar hamda shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Hududlarda jamoat transporti infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 14-noyabrda 757-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov